




## BOLALAR DUNYOSIDAGI RUHIY O'ZGARISHLAR.



*Bolalar kasalliklari propodevtikasi kafedrasi*

*assistenti Xadjayeva I.A*

*Toshkent Pediatriya Tibbiyot insitituti 2-pediatriya va*

*Tibbiy Biologiya fakulteti 2-pediatriya 201-guruh talabasi*

*Abdullayeva Durdon Uktambek qizi.*

*Email: [durdonaabdullayeva650@gmail.com](mailto:durdonaabdullayeva650@gmail.com)*

*Tel: +998 93) 891 - 04 - 12*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning asab - ruhiy rivojlanishining ularning jismoniy va psixologik sog'lig'ini yaxshilashdagi muhim ahamiyati yoritib berilgan. Bola boshidan kechirgan biologik va psixologik o'zgarishlar uning xulq atvori, emotsiyalari va ongli faoliyatining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Asab tizimi va miyaning rivojlanishi shuningdek, bola psixikasining shakllanishi, tafakkur, e'tibor va xotira kabi kognitiv funksiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu rivojlanishning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bolalarning umumiy rivojlanishiga va kelajakdagi psixologik barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** asab tizimi, ruhiy rivojlanish, bolalar, kognitiv funksiyalar, emotsiyalar, xulq atvor, atrof-muhit omillari , psixologik rivojlanish.

Bolalarning asab-ruhiy rivojlanishi bu bolalarning asab tizimi va psixologik jarayonlarining o'sishi va rivojlanishidir. Ushbu jarayon bolaning ongli va noaniq faoliyatini, his-tuyg'ularini, fikrlashini, xulq-atvorini va jamiyatda ijtimoiy moslashishini o'z ichiga oladi. Bolaning asab tizimi va ruhiy rivojlanishi ota-onasi, atrofdagi yaqinlari va jamiyat bilan o'zaro aloqlariga shuningdek, uning yashash muhiti va ta'lif jarayonlariga bog'liq. Ushbu rivojlanish bolaning sog'lig'iga,



o‘qishiga va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta ta’sir ko’rsatadi. Bolaning qanday rivojlanayotgani uning psixologik barqarorligiga va umumiy salomatligiga katta ta’sir qiladi.

Asab tizimi homiladorlikning 2- haftalarida birinchi bor medulyar plastinka holida paydo bo’lib, keyinchalik u medulyar naychasi holiga aylanadi.

Bu naychaning yuqorigi qismi o’sib miya pufakchalarini, pastki qismi esa orqa miyani hosil qiladi. Birlamchi miya pufakchalaridan homiladorlikning 5-6-haftalarida bosh miyaning ma‘lum asosiy qismlari shakllanadi; miyaning ikki yarim shari qadoqli tana bilan bog’langan holda; oraliq miya, o’rta miya, ko’prik miya, uzunchoq miya. Medulyar naychaning orqa qismidan orqa miya hosil bo’ladi. Bosh miya asab hujayralarining shiddat bilan bo’linishi homiladorlikning 10-18- haftalariga to’g’ri kelib, bu markaziy asab sistemasi shakllanishining eng nozik (kritik) davri deb hisoblanadi. Mana shu davrda virus, toqsin va dorilar ta’siri homila miyasiga juda qattiq shikast yetkazishi mumkin. Keyinchalik hujayralar bo’linishi jadallahashi va bu bolaning ikki

yoshgacha davom etadi. Agar katta kishi bosh miyasining hujayralar sonini 100% deb olinsa, yangi tug’ilgan chaqaloqda miya hujayralarini 25% 6oylikda 66% , 1 yoshda 90- 95% shakllangan bo’ladi.

Chaqaloq bolada yoki tug’ilishning birinchi oylarida kuzatilgan markaziy asab sistemasining patologik holati ensefalopatiya deyilib, bu tug’ilgan bola bosh miyasini ona qornida yoki tug’ilish davrida jarohatlanishidan paydo bo’ladi.

Nevrologik kasalliklar harakat faolligini o’zgarishi bilan kechishi mumkin. Buni aniqlash uchun bemorda mushak tonusi va kuchini, faol va passiv harakatlar holatini tekshirish lozim. Yangi tug’ilgan bolada 1-2-3- kunlari qiyqirganda, bezovtalikda qo’li va pastki jag’ni titrashi, markaziy asab sistemasini jarohatlanish belgisi hisoblanmaydi. Ammo qo’l-oyoqning doimiy yoki uzoq vaqt titrashi patologik holat hisoblanadi. Mushak tonusini juda past yoki yo’q bo’lishi xatto tug’ilishining birinchi minutlarida

bo'lsa ham homilani asab sistemasini jarohatlanganidan dalolat beradi. Mushak tonusini ortib ketishi tug'ilishda bosh miya jarohatlanishida (ko'pincha subaraxnoidal qon quyilishda), yiringli meningitda, giperbilirubin ensefalopatiyasida, ona qornida o'tkazilgan infektion kasalliklarda markaziy asab sistemasining jarohatlanishidan paydo bo'lishi mumkin. Mushak tonusini o'zgarishi, bolada tanani tutib turish holati va harakatni buzilishiga olib keladi.

Asab-ruhiy kasalliklarida nevroz, giperaktivlik, depressiya kabi holatlar kuzatiladi. Nevroz – bu bolalardagi asab tizimining haddan tashqari taranglashuvi yoki ruhiy stress tufayli paydo bo'ladigan holat. Nevroz bolalarda o'zini izolyatsiya qilish, bezovtalik, qo'rquv hissi va qo'lga olishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Giperaktivlik – ba'zi bolalar o'zlarini tinchlantira olmaydi va doimiy ravishda jismoniy faoliyatda bo'lishni xohlaydilar. Bu holat matabda va uyda boshqa bolalar bilan o'zaro munosabatlarda muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Depressiya – ba'zi bolalar o'zlarini qiziqmasdan, ijtimoiy izolyatsiyada bo'lishi va hatto o'ziga zarar yetkazishga qiziqishi mumkin. Bu holat, ayniqsa, oiladagi muammolar yoki do'stlik munosabatlarining buzilishi bilan bog'liq.

Bolalarda asabiy kasalliklarning oldini olish va erta aniqlash uchun ota-onalar va pedagoglar quyidagi tavsiyalarga amal qilishlari zarur: Har bir bolaning individual xususiyatlarini e'tiborga olish va ular bilan yaxshilab muloqot qilish kerak. Matabda yoki uyda bolalarga stressli vaziyatlardan qochish, ular bilan psixologik maslahatlar o'tkazish kerak. Bolalar bilan ishlovchi mutaxassislarning roli katta bo'lib, ular bolalarni o'z hissiyotlarini tushunishga va boshqarishga o'rgatishlari kerak.

Shomansurov bolalar psixologiyasiga yondashuvini ilgari surgan va bu yondashuv bolalarning ruhiy holatini aniqlash va davolashda juda samarali bo'ldi. U asabiy kasalliklarni davolashda bolalarning his-tuyg'ularini to'g'ri anglash va ular bilan ishslashning ahamiyatini ta'kidlagan. Uning metodlari bolalarning o'zini anglash jarayonini rivojlantirishga, stressni boshqarish va ijtimoiy ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar asabiy kasalliklarni

erta davolash orqali ular o'z xulq-atvorlarini yaxshilashlari, ijtimoiy faoliyatlariga moslashishlari va umumiy psixologik barqarorlikka erishishlari mumkin.

Bolalarning asab-ruhiy rivojlanishi sohasida ko'plab ilmiy adabiyotlar mavjud bo'lib, ular turli psixologik, nevrologik va biologik jihatlarni o'rganadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolalar asab tizimining rivojlanishida turli omillar, jumladan genetik, ijtimoiy va atrof-muhit faktorlar katta rol o'yнaydi. Masalan, Vygotkiy (1978) o'zining "ijtimoiy interaktiv rivojlanish" nazariyasida bola va jamiyat o'rtaсидagi aloqani ta'kidlaydi. Unga ko'ra, bolalarning psixologik rivojlanishi faqat shaxsiy emas, balki ijtimoiy muhitdan ham ta'sirlanadi.

Bundan tashqari, asab tizimining rivojlanishiga oid ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolaning hissiy va ruhiy holati uning intellektual rivojlanishiga, tafakkur va e'tibor kabi kognitiv funksiyalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Yana bir muhim manba, Howard Gardnerning (1983) "Ko'p intellektual nazariya" bo'lib, bu yondoshuv bola rivojlanishining turli jihatlarini ko'rib chiqadi va har bir bola o'zining intellektual qobiliyatlariga ega ekanligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, bolalarning asab-ruhiy rivojlanishini tushunish uchun yanada kengroq tadqiqotlar talab qilinadi, chunki har bir bolaning rivojlanish jarayoni individual va o'ziga xosdir.

Bolalarning asab tizimi rivojlanishi tug'ilishidan boshlab boshlanadi. Dastlab bola faqat asosiy reflekslarga ega bo'lsa, vaqt o'tishi bilan miyaning yaxshi rivojlanishi va asab tizimi shakllanadi. Bu o'zgarishlar bolaning harakatlarini nazorat qilish atrof-muhitni anglash va yangi ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Bolaning ruhiy rivojlanishi uning his-tuyg'ulari, xulq-atvori va ijtimoiy munosabatlarini o'z ichiga oladi. Dastlabki yillarda bolalar o'z his-tuyg'ularini anglashni o'rganadilar, o'smirlikda esa hissiy reaksiyalar murakkablashdi.

Bola asab-ruhiy rivojlanishining asosiy bosqichlarini infantlik, bolalik va o'smirlik davralaridan iborat. Har bir bosqichda bolaning kognitiv va emotsional rivojlanishi yangilanish va shakllanish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Bolaning asab-ruhiy rivojlanishiga genetik, ijtimoiy va atrof-muhit omillari ta'sir qiladi. Ota-onalar va maktabdagi ta'lif, do'stlar bilan munosabatlar bola psixikasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bolaning asab-ruhiy rivojlanishi, ularning umuman o'sishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli integratsiyalashishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Har bir bola o'zining rivojlanish bosqichida psixologik, emotsional va kognitiv o'zgarishlarni boshdan kechiradi, bu esa uning shaxsiyati va ijtimoiy aloqalarini shakllantiradi. Asab tizimining rivojlanishi va uning ta'siri bolaning ongli faoliyatini, o'qishini va o'zini anglashni yaxshilashga yordam beradi. Shuning uchun, bolalar uchun zarur psixologik va jismoniy sharoitlarni yaratish, ularning asab-ruhiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, keljakda ular uchun ijobiy natijaga olib keladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- *Bolalar kasalliklari propedevtikasi* (2017) A.Sh.Arziqulov, I.I.Alimjonov, M.M.Djalalova.
- 2. *Sh.Sh. Shomansurov. "Asab va ruhiy kasalliklar"*. Toshkent, 1995
- 3. *A.M. Arslanov. "Asab kasalliklari"* Toshkent 1998
- 4. *Sh.Sh. Shomansurov. "Bolalar asab kasalliklari"* Toshkent 1995